



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDII RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIY BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI	167
Iskandarov Xurshid Iskandarovich	
TEXNOLOGIK AVLOD ALMASHINISHI SHAROITIDA ALOQA KORXONALARI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING QADRSIZLANISHINI HISOBGA OLISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Jamilov Jushqin Jonon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI ANFIS ASOSIDA MODELLASHTIRISH	181
Avazova Nafisa Namazovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH: O'ZSME-DDI MODULINING METODOLOGIYASI VA AMALIY JORIY ETISH MEXANIZMI	186
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	193
Kenjaeva Durdona Ravshan qizi	
ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ КАК ИНСТРУМЕНТ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	198
Аюбов Ойбек Улугбек угли	
YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	204
Raximov Sarvarbek Abdumutalibjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI	211
Umarova Gulzodxon Qodirbekovna	



MEHMONXONA XO'JALIKLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL MEKANIZMI VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	216
Rahimov Hasan Abdusaitovich	
NOMODDIY AKTIVLAR BO'YICHA OSHKORALIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA MILLIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR BILAN UYG'UNLASHTIRISH.....	221
Ishankulov Izzatilla Nurillayevich	
SANOATLASHTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA UNUMDORLIK OMILI.....	226
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
INNOVATSION O'ZGARISHLAR ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING 2030-YILGACHA MO'LJALLANGAN PROGNOZ SSENARIYLARI VA ULARNING SEZGIRLIK TAHLILI	232
Amrullayev Dadaxon	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УЯЗВИМОСТИ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ И СТРУКТУРНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	237
Эркинбаева Камила Жавланбековна	
TIJORAT BANKLARI BIZNES MODELINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	243
Sh. Nurullayeva	
S. Narimonov	
OLIY TA'LIMDA RAQAMLI EKOTIZIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI XAVF-XATARLAR (RISKLAR) VA BOSHQARUV MUAMMOLARI.....	249
Pirmanov Oxunjon Baxridin o'g'li	
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	256
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Хакимов Хафизбек Хамза угли	
Джумабаева Гаянэ Рахимовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOTRANSPORT XIZMATLARI BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI EKOLOGIK-IQTISODIY OMILLAR ASOSIDA OSHIRISH YO'LLARI	263
Sultanov Sulaymon Safarboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	269
Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH, YER RESURLARIDAN FOYDALANISH VA AHOLINING XARID QOBILIYATI MUVOFIQLIGINI BAHOLASH	276
Ramazonov Zafar Ulug'bekovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СТРАХОВОГО РЫНКА	281
Мирахмедова Мафтуна Ибрагимовна	
TIJORAT BANKLARIDA FOIZ SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AMALIY JIHATLARI.....	288
Orifova Dilnoza Obid qizi	
XALQARO KREDIT LINIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	295
Aliyev Bekzod Ilhomovich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ УЧЁТА И АНАЛИЗА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	301
Холикова Дурдона Бунёдjon кизи	



TOSHKENT VILOYATIDA ISHLAB CHIQARISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HUDUDIIY DIFFERENSIATSIYASI.....	308
Salimov Burxoniddin	
IJTIMOIIY-IQTISODIIY ADOLATNI TA'MINLASHDA SINERGETIK YONDASHUV: ZANJIRLI ADOLAT KONSEPSIYASI.....	314
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
AQLLI SHAHAR TIZIMIDA IJTIMOIIY SOHA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEXANIZMLARI.....	319
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QO'SHILGAN QIYMATNI TAQSIMLASHNING SAMARALI SOLIQ MEXANIZMIGA OID XORIJ TAJRIBALARI.....	326
A.A. Bobomurodov	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT" TIZIMIGA O'TISH ZARURIYATI VA XIZMATLAR SOHASI UCHUN IQTISODIIY AHAMIYATI.....	333
Y.M.Xalikov	
OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	342
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li	
YOSHLARNING RAQAMLI MEHNAT PLATFORMALARIDA BARQAROR BANDLIGINI RISKKA ASOSLANGAN STRATEGIK BOSHQARISH.....	349
Palvonova Sevara Baxromovna	



YOSHLARNING RAQAMLI MEHNAT PLATFORMALARIDA BARQAROR BANDLIGINI RISKKA ASOSLANGAN STRATEGIK BOSHQARISH

Palvonova Sevara Baxromovna

University of Business and Science oliygohi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada yoshlarni raqamli mehnat platformalariga ro'yxatdan o'tkazishni bandlik natijasi deb qabul qilish yetarli emasligi, platformaviy mehnatni sof daromad, buyurtmalar barqarorligi, algoritmik qarorlar, komissiyalar, kiberxavf, ijtimoiy himoya va platformaga qaramlik risklari asosida boshqarish zarurati asoslangan. Jahonda onlayn gig mehnati ko'lami, O'zbekistonda internet qamrovining 2021–2025 yillardagi o'sishi va kambag'allikdan farovonlikka o'tish siyosatining vazifalari tahlil qilingan. Integral platformaviy risk indeksi, riskka tuzatilgan sof raqamli daromad hamda barqaror platformaviy bandlik koeffitsiyenti taklif etilgan. Shartli 1000 nafarlik pilot kogorta bo'yicha ssenariy hisob-kitobi riskka asoslangan akselerator 12 oylik barqaror bandlik ulushini 18 foizdan 39 foizgacha oshirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: raqamli mehnat platformalari, yoshlar bandligi, gig iqtisodiyoti, strategik risk, sof raqamli daromad, algoritmik boshqaruv, ijtimoiy himoya, diversifikatsiya, KPI.

Аннотация. В статье обоснована необходимость оценивать платформенную занятость молодежи не по факту регистрации, а по устойчивому чистому доходу, регулярности заказов, зависимости от одной платформы, алгоритмическим, комиссионным, кибернетическим и социальным рискам. Предложены интегральный индекс платформенного риска, риск-скорректированный чистый цифровой доход и коэффициент устойчивой платформенной занятости. Сценарный расчет для условной когорты из 1000 участников показывает возможность увеличения доли устойчиво занятых через 12 месяцев с 18 до 39 процентов.

Ключевые слова: цифровые трудовые платформы, молодежная занятость, гиг-экономика, стратегический риск, чистый цифровой доход, алгоритмическое управление, социальная защита, KPI.

Abstract. The article argues that youth platform work should be assessed not by registration figures but by sustainable net income, order continuity, platform dependence, algorithmic opacity, fees, cyber risks and social protection. It proposes an Integrated Platform Risk Index, Risk-adjusted Net Digital Income and a Sustainable Platform Employment Coefficient. A scenario calculation for a model cohort of 1,000 participants indicates that a risk-based accelerator could raise twelve-month sustainable employment from 18 to 39 percent.

Keywords: digital labour platforms, youth employment, gig economy, strategic risk, net digital income, algorithmic management, social protection, diversification, KPI. JEL: J21, J24, O33, M10.

KIRISH

Raqamli mehnat platformalari mehnat bozoriga kirish xarajatlarini pasaytirib, yoshlarga hududiy chegaradan qat'i nazar buyurtma olish, o'qish bilan ishni birlashtirish va yangi kasbiy portfolio shakllantirish imkonini bermoqda. Jahon banki onlayn gig mehnatida 154 milliondan 435 milliongacha kishi ishtirok etishi mumkinligini, ushbu ko'lam jahon mehnat kuchining 4,4–12 foiziga tengligini baholagan (Datta et al., 2023). Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlarida raqamli mehnat platformalari soni 2010 yildagi kamida 142 tadan 2020 yilda 777 tadan ortiqqa o'sgan (International Labour Organization [ILO], 2021). Bu dinamika platformaviy mehnatni vaqtinchalik hodisa emas, balki mehnatni tashkil etishning mustaqil institutsional shakli sifatida o'rganish zaruratini kuchaytiradi.

O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar ulushi 2021 yilda 76,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yil yanvar–avgustda 94,2 foizga yetgan (O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2025). Infratuzilmaviy qamrov onlayn ish, frilans, elektron tijorat va raqamli xizmatlar uchun bazaviy imkoniyat yaratadi. Biroq internetga kirish, platformada akkaunt ochish yoki birinchi buyurtmani olishning o'zi barqaror farovonlikni



anglatmaydi. Komissiya, valyuta konvertatsiyasi, internet va qurilma xarajatlari, buyurtmalar mavsumiyligi, reytingning pasayishi, akkauntning cheklanishi va firibgarlik yalpi tushum bilan real sof daromad o'rtasida katta farq hosil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 sentyabrdagi PF-143-son Farmonida aholini yuqori daromadli barqaror ish bilan band qilish, yoshlarni raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim va kasbga yo'naltirish hamda natijadorlik ko'rsatkichlarini belgilash ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2024). Shunga ko'ra, platformaviy bandlikni ro'yxatdan o'tganlar soni bilan emas, 3, 6 va 12 oyda saqlangan sof daromad, ijtimoiy himoya va kasbiy o'sish bilan baholaydigan strategik boshqaruv mexanizmi talab etiladi.

Tadqiqotning maqsadi yoshlarning raqamli mehnat platformalaridagi bandligini riskka asoslangan yondashuv orqali barqaror daromad va farovonlikka aylantirish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat. Tadqiqot obyekti — yoshlarning onlayn va joylashuvga asoslangan platformalarda mehnat qilishi jarayoni; predmeti — risklarni diagnostika qilish, sof daromadni hisoblash, diversifikatsiya va natijaga asoslangan monitoring vositalaridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Platformaviy mehnatni baholashda ikki qarash shakllangan. Birinchi yondashuv uni yoshlar, xotin-qizlar va chekka hudud aholisi uchun mehnat bozoriga tez kirish kanali sifatida ko'radi (Datta et al., 2023; ILO, 2024). Ikkinchi yondashuv algoritmik nazorat, mehnat munosabatlarining noaniqligi, ish vaqtining yashirin uzayishi, past haq va ijtimoiy kafolatlar yetishmasligiga urg'u beradi (De Stefano, 2016; ILO, 2021; Kellogg et al., 2020; Vallas & Schor, 2020; Wood et al., 2019). Mazkur qarashlar qarama-qarshi emas: platforma imkoniyat yaratadi, ammo bu imkoniyatning farovonlikka aylanishi risklarni boshqarish sifatiga bog'liq.

D. Tisning dinamik qobiliyatlar nazariyasi tashkilotning muhit signallarini sezish, imkoniyatni egallash va resurslarni qayta moslashtirish qobiliyatini strategik ustunlik deb baholaydi (Teece, 2007). Platformaviy bandlikda bu mantiq yosh ijrochining talab o'zgarishini anglashi, xizmat paketini qayta tuzishi, yangi platformaga o'tishi va daromad manbasini diversifikatsiya qilishida namoyon bo'ladi. R. Kaplan va D. Nortonning Balanced Scorecard modeli natijani faqat moliyaviy ko'rsatkich bilan emas, mijoz, ichki jarayon va rivojlanish bloklari bilan baholash imkonini beradi (Kaplan & Norton, 1996).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, risklarni vaznlash, ssenariy modellashtirish va Balanced Scorecard usullaridan foydalanildi. Empirik bazani 2021–2025 yillar bo'yicha O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, Jahon banki va XMTning platformaviy mehnatga oid hisobotlari tashkil etadi (Datta et al., 2023; ILO, 2021, 2024; O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2025). Mikrodarajadagi hisob-kitoblar real statistika sifatida emas, taklif etilayotgan mexanizmning mantiqiy samarasini ko'rsatuvchi shartli 1000 nafarlik pilot kogorta ssenariysi sifatida talqin qilinadi.

NATIJALAR

Platformaviy bandlik risklarini baholash

Platformaviy mehnatda asosiy xatolik yalpi tushumni daromad, ro'yxatdan o'tishni esa bandlik deb qabul qilishdir. Yosh ijrochining real iqtisodiy natijasi platforma komissiyasi, pul o'tkazmasi, soliq, internet, qurilma amortizatsiyasi, ishsiz kutish vaqti va risk zaxirasi chegirilgandan keyin aniqlanishi lozim. Shu maqsadda sof raqamli daromad quyidagicha hisoblanadi:


$$SRD_i = YAT_i - (KP_i + TX_i + IQ_i + S_i + RZ_i) \quad (1)$$

bu yerda: SRD — sof raqamli daromad; YAT — yalpi tushum; KP — platforma komissiyasi; TX — tranzaksiya xarajati; IQ — internet va qurilma xarajati; S — soliq va majburiy to'lovlar; RZ — risk zaxirasi.

Risk profili yettita blokdan tarkib topadi: daromad beqarorligi, bitta platformaga qaramlik, algoritmik qarorlar shaffof emasligi, komissiya va yashirin xarajatlar, kiber va to'lov xavfi, ijtimoiy himoya yetishmasligi hamda ko'nikmaning tez eskirishi. Har bir blok 0 dan 1 gacha baholanadi va mualliflik vazni bilan ko'paytiriladi:

$$IPRI_i = \Sigma(w_j \times r_{ij}), \quad \Sigma w_j = 1 \quad (2)$$

IPRI — integral platformaviy risk indeksi; r_{ij} — i-ijrochining j-risk bo'yicha bahosi; w_j — riskning strategik vazni. Indeks 0,30 gacha — past, 0,31–0,55 — o'rta, 0,56 dan yuqori — yuqori risk sifatida talqin qilinadi.



1-rasm. Platformaviy bandlik risklarining mualliflik vaznlari

Manba: XMT va Jahon banki yondashuvlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Integral risk indeksi sof daromadning barqarorlik sifatini hisobga olish uchun qo'llanadi. Bir xil sof daromadga ega ikki ijrochidan birining daromadi bitta platforma va bitta mijozga bog'langan bo'lsa, uning iqtisodiy holati diversifikatsiyalangan ijrochiga nisbatan zaifroqdir. Shu sababli riskka tuzatilgan sof raqamli daromad taklif etiladi:

$$RTSD_i = SRD_i \times (1 - IPRI_i) \quad (3)$$

RTSD — riskka tuzatilgan sof raqamli daromad. U dasturlar natijasini yalpi tushum emas, risk hisobga olingan real iqtisodiy qiymat bo'yicha solishtirish imkonini beradi.

1-jadval. Riskka asoslangan monitoringning asosiy indikatorlari

Risk bloki	O'lchov indikator	Kritik chegara	Boshqaruv chorasi
Daromad	3 oylik variatsiya koeffitsiyenti	> 0,40	Buyurtma portfelini kengaytirish
Platformaga qaramlik	Eng katta platforma ulushi	> 70%	Kamida 2 ta kanalga chiqish
Xarajat	Komissiya va tranzaksiya / tushum	> 25%	Narx va to'lov kanalini qayta tanlash
Kiberxavf	Tekshirilmagan mijozlar ulushi	> 20%	Eskrou va ikki bosqichli himoya
Ijtimoiy himoya	Zaxira va sug'urta mavjudligi	Yo'q	Daromadning 5–10% zaxirasi
Ko'nikma	Yangilangan portfolio davriyligi	> 6 oy	Qisqa qayta tayyorlash moduli

Manba: muallif ishlanmasi.

MUHOKAMA


Riskka asoslangan strategik akselerator

Taklif etilayotgan «Yoshlar platformaviy bandligi risk-akseleratori» umumiy kompyuter kursi yoki bir martagi subsidiyadan farq qiladi. Mexanizm yoshning aniq to'sig'ini topib, resursni shu to'siqqa yo'naltiradi. Birinchi bosqichda raqamli, kasbiy, til, moliyaviy va huquqiy kompetensiyalar hamda qurilma, internet va vaqt aktivlari baholanadi. Ikkinchi bosqichda yettita risk bloki bo'yicha shaxsiy risk profili tuziladi. Uchinchi bosqichda yoshning malakasi va hududiga mos platforma hamda xizmat modeli tanlanadi.



To'rtinchi bosqichda profil, portfolio, xizmat narxi, shartnoma, mijoz bilan muloqot va birinchi buyurtmagacha mentorlik beriladi. Beshinchi bosqichda sof raqamli daromad kalkulyatori, soliq rejimi, zaxira jamg'armasi va xavfsiz to'lov mexanizmi joriy etiladi. Oltinchi bosqichda bitta platforma yoki bitta mijozga qaramlikni kamaytirish, ijtimoiy himoya va kompetensiyani muntazam yangilash ta'minlanadi. Boshqaruv sikli 30 kunlik kirish, 3 oylik faollik, 6 oylik sof daromad va 12 oylik barqarorlik natijalari bilan yopiladi.

«Yoshlar platformaviy bandligi risk-akseleratori»



2-rasm. «Yoshlar platformaviy bandligi risk-akseleratori» mualliflik modeli

Manba: muallif ishlanmasi.


Mexanizmning natijaviy indikatori sifatida Barqaror platformaviy bandlik koeffitsiyenti (BPBK) qo'llanadi. U 6 oylik daromad barqarorligi, ikki va undan ortiq daromad kanali, ijtimoiy himoya yoki zaxira, kompetensiya yangilanishi va xavfsiz to'lov amaliyotini 0–1 oralig'ida baholaydi: $BPBK = 0,30B + 0,25D + 0,20I + 0,15K + 0,10X$. Koeffitsiyent 0,70 va undan yuqori bo'lsa, ishtirokchi barqaror platformaviy bandlikka chiqqan deb hisoblanadi.

2-jadval. Shartli 1000 nafarlik pilot kogorta bo'yicha ssenariy natijalari

Natija bosqichi	Amaldagi yondashuv	Risk-akselerator	Farq
Platformada ro'yxatdan o'tganlar	1000	1000	—
3 oyda faol buyurtma olganlar	520	650	+130
6 oyda musbat sof daromadga chiqqanlar	340	520	+180
12 oy barqaror daromadga chiqqanlar	180	390	+210
Zaxira yoki ijtimoiy himoyaga ega	70	280	+210
Kamida 2 ta daromad kanaliga ega	45	240	+195

Izoh: raqamlar mexanizmning mantiqiy ta'sirini ko'rsatuvchi mualliflik ssenariy hisob-kitobi bo'lib, rasmiy statistika yoki aprobat siya natijasi sifatida talqin qilinmaydi.

Ssenariyda asosiy samara ro'yxatdan o'tish bosqichida emas, 6–12 oylik konversiyada yuzaga keladi. Amaldagi yondashuvda 1000 ishtirokchidan 180 nafari barqaror daromadga chiqsa, risk-akseleratorda bu ko'rsatkich 390 nafarga yetadi. Farqning manbai umumiy o'qitish hajmini oshirish emas, balki birinchi buyurtma, sof daromad, diversifikatsiya va himoyadagi aniq uzilishlarni bartaraf etishdir.



3-rasm. 2026–2030 yillar uchun barqaror platformaviy bandlik ssenariysi

Manba: 2026 yilni bazaviy nuqta sifatida qabul qilgan mualliflik ssenariy prognozi.

AMALIY TAKLIF VA TAVSIYALAR

1. Yoshlar ishlari agentligi, «Inson» markazlari, bandlik organlari va ta'lim provayderlari ishtirokida raqamli mehnat platformalari uchun yagona risk-diyagnostika kartasini joriy etish.
2. Davlat hisobotlarida «ro'yxatdan o'tgan» va «kursni tamomlagan» ko'rsatkichlariga qo'shimcha ravishda 3 oylik faol buyurtma, 6 oylik sof daromad va 12 oylik barqaror bandlik KPIlarini belgilash.
3. Platformaviy dasturlarda yalpi tushum emas, komissiya, tranzaksiya, internet, qurilma, soliq va risk zaxirasi chegirilgan sof raqamli daromadni hisoblash.
4. Bir platforma ulushi 70 foizdan oshgan ishtirokchilar uchun diversifikatsiya modulini majburiy qo'llash; kamida ikki platforma, to'g'ridan-to'g'ri mijoz yoki elektron savdo kanaliga chiqishni ta'minlash.
5. Daromadning 5–10 foizini ixtiyoriy risk zaxirasiga yo'naltirish, mikrosug'urta va pensiyaga ixtiyoriy badal mexanizmlarini platformalar interfeysiga integratsiya qilish.
6. Algoritmik reyting yoki akkaunt cheklovi bo'yicha shikoyat qilish, ma'lumotni ko'rish va inson ishtirokida qayta ko'rib chiqishning minimal shaffoflik standartlarini ishlab chiqish.
7. Ta'lim provayderlarini ishtirokchilar soni bo'yicha emas, riskka tuzatilgan sof daromad va 12 oylik barqaror bandlik natijasiga qarab qisman moliyalashtirish.

XULOSA

Raqamli mehnat platformalari yoshlarni mehnat bozoriga tez kiritish, hududiy cheklovni yumshatish va yangi daromad manbasini shakllantirish imkonini beradi. Biroq platformaviy akkaunt, buyurtma yoki yalpi tushum barqaror farovonlikning o'zi emas. Iqtisodiy natija komissiya va xarajatlardan keyingi sof daromad, buyurtmalar davomiyligi, platformaga qaramlik, kiberxavf, ijtimoiy himoya va kompetensiyaning yangilanishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotda taklif etilgan integral platformaviy risk indeksi, riskka tuzatilgan sof raqamli daromad va barqaror platformaviy bandlik koeffitsiyenti davlat dasturlari hamda ta'lim provayderlari natijasini bir xil mezonda baholash imkonini beradi. «Yoshlar platformaviy bandligi risk-akseleratori» umumiy kurslardan aniq to'siqqa yo'naltirilgan diyagnostika, mentorlik, zaxira, diversifikatsiya va 12 oylik monitoringga o'tishni nazarda tutadi.

Shartli ssenariy hisob-kitobi riskka asoslangan boshqaruv 1000 nafar ishtirokchi orasida 12 oylik barqaror bandlikni 180 nafardan 390 nafargacha oshirish potentsialiga ega ekanini ko'rsatdi. Mazkur natija keyingi bosqichda hududiy pilot, platformalardan anonimlashtirilgan ma'lumot olish va longityud baholash orqali empirik aprobatsiya qilinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmonov, Q. X. (2019). Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. Fan.
2. Adner, R. (2017). Ecosystem as structure: An actionable construct for strategy. Journal of Management, 43(1), 39–58. <https://doi.org/10.1177/0149206316678451>



3. Datta, N., Rong, C., Singh, S., Stinshoff, C., Iacob, N., Nigatu, N. S., Nxumalo, M., & Klimaviciute, L. (2023). Working without borders: The promise and peril of online gig work. World Bank. <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/ebc4a7e2-85c6-467b-8713-e2d77e954c6c>
4. De Stefano, V. (2016). The rise of the 'just-in-time workforce': On-demand work, crowdwork, and labour protection in the gig-economy. *Comparative Labor Law & Policy Journal*, 37(3), 471–504.
5. European Training Foundation. (2024). New forms of work and platform employment in Central Asia.
6. Helsper, E. J. (2021). The digital disconnect: The social causes and consequences of digital inequalities. SAGE.
7. International Labour Organization. (2021). World employment and social outlook 2021: The role of digital labour platforms in transforming the world of work. <https://www.ilo.org/publications/flagship-reports/role-digital-labour-platforms-transforming-world-work>
8. International Labour Organization. (2024, March 20). Digital labour platforms can advance social justice by focusing on worker needs. <https://www.ilo.org/resource/statement/digital-labour-platforms-can-advance-social-justice-focussing-worker>
9. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1996). The balanced scorecard: Translating strategy into action. Harvard Business School Press.
10. Kellogg, K. C., Valentine, M. A., & Christin, A. (2020). Algorithms at work: The new contested terrain of control. *Academy of Management Annals*, 14(1), 366–410. <https://doi.org/10.5465/annals.2018.0174>
11. OECD, International Labour Organization, & European Union. (2023). Handbook on measuring digital platform employment and work. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/0ddcac3b-en>
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2025, September 29). O'zbekiston aholisining 94,2 foizi internetdan foydalanadi. <https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/64213-zbekiston-a-holisining-94-2-foizi-internetdan-foydalanadi-4>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020, October 5). 'Raqamli O'zbekiston – 2030' strategiyasini tasdiqlash to'g'risida (PF–6079-son Farmon). LexUZ.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023, September 11). 'O'zbekiston – 2030' strategiyasi to'g'risida (PF–158-son Farmon). LexUZ.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024, September 23). Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida (PF–143-son Farmon). LexUZ.
16. Porter, M. E., & Kramer, M. R. (2011). Creating shared value. *Harvard Business Review*, 89(1–2), 62–77.
17. Teece, D. J. (2007). Explicating dynamic capabilities: The nature and microfoundations of (sustainable) enterprise performance. *Strategic Management Journal*, 28(13), 1319–1350. <https://doi.org/10.1002/smj.640>
18. Vallas, S., & Schor, J. B. (2020). What do platforms do? Understanding the gig economy. *Annual Review of Sociology*, 46, 273–294. <https://doi.org/10.1146/annurev-soc-121919-054857>
19. van Laar, E., van Deursen, A. J. A. M., van Dijk, J. A. G. M., & de Haan, J. (2017). The relation between 21st-century skills and digital skills: A systematic literature review. *Computers in Human Behavior*, 72, 577–588. <https://doi.org/10.1016/j.chb.2017.03.010>
20. Vuorikari, R., Kluzer, S., & Punie, Y. (2022). DigComp 2.2: The digital competence framework for citizens. Publications Office of the European Union. <https://doi.org/10.2760/115376>
21. Wood, A. J., Graham, M., Lehdonvirta, V., & Hjorth, I. (2019). Good gig, bad gig: Autonomy and algorithmic control in the global gig economy. *Work, Employment and Society*, 33(1), 56–75. <https://doi.org/10.1177/0950017018785616>
22. Yo'ldoshev, N. Q. (2013). Strategik menejment. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>